ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA VATAN, MILLAT KONSEPTINING IFODALANISHI

Egamberdiyeva Shahina Bobir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi UZB-AU-25 guruhi 2-bosqich talabasi
E-mail: egamberdiyevashahina01@gmail.com
Tel: +998917693405
Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) ***Irodaxon Ibragimova***
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23883359

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy asarlarida vatan sog‘inchi, millat taqdiri, mustaqillik g‘oyalari va milliy o‘zlikni anglash muammolari tahlil qilinadi. Adibning “O‘tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon” romanlari misolida vatan va millat konseptsiyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Vatan, millat, milliy o‘zlik, Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”,“Mehrobdan chayon“.

Abstract. This article analyzes the themes of homesickness for the homeland, the fate of the nation, ideas of independence, and the realization of national identity in the works of Abdulla Qodiriy, the founder of Uzbek national fiction. The concepts of homeland and nation are revealed through the author's novels “O‘tkan kunlar” and “Mehrobdan chayon.”

Keywords. Homeland, nation, national identity, Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar,” “Mehrobdan chayon”.

Аннотация. В данной статье анализируются темы тоски по родине, судьбы нации, идеалов независимости и формирования национальной идентичности в произведениях Абдуллы Кодирия, основоположника узбекской национальной художественной литературы. Понятия «родина» и «нация» раскрываются в романах автора «O‘tkan kunlar» и «Mehrobdan chayon».

Ключевые слова. Родина, нация, национальная идентичность, Абдулла Кодирий, «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon».

Abdulla Qodiriy o‘zbek nasrining eng yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. U milliy uyg‘onish davri adabiyotining figurasi bo‘lib, o‘z

asarlarida o‘sha davr jamiyati, odamlari va siyosiy holatlarini ochiqchasiga yoritgan. Muallifning butun ijodiy merosi, xususan, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari markazida bitta buyuk g‘oya — vatan va millat qayg‘usi yotadi. Chunki adib yashagan va ijod qilgan davr milat taqdiri qaltis pallaga kelib qolgan, Turkiston o‘lkasining chor Rossiyasi mustamlakasiga aylangan, milliy tanazzul va ijtimoiy inqirozlar avj olgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham muallif o‘z asarlarida vatan va millat taqdirini markaziy muammoga aylantiradi.

Abdulla Qodiriyning vatanparvarlik konseptsiyasi uning shoh asari bo‘lmish “O‘tkan kunlar” romanining ilk satrlaridanoq ko‘zga tashlanadi. Muallif o‘z muqaddimasida "Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir Abdulla Qodiriyning vatanparvarlik konsepsiyasi uning shoh asari bo‘lmish “O‘tkan kunlar” romanining ilk satrlaridanoq ko‘zga tashlanadi. Masalan: “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi „xon zamonlari“dan belguladim”[1] deya ta’kidlar ekan, o‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarish, millatni g‘ofillik uyqusidanoq uyg‘otishni maqsad qiladi.Roman qahramoni Otabek obrazi orqali muallif o‘zi orzu qilgan ma’rifatli, ilg‘or fikrli va vatanparvar yoshlar timsolini yaratadi. Otabekning Shamay va Peterburg kabi shaharlardagi taraqqiyotni ko‘rib, o‘z vatani Turkistondagi qoloqlikdan, xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro nizolardan kuyunishi — bu millatning dardi edi. Otabek tilidan aytilgan: "Bizning bu holatda ketishimiz... bitishimizdir", degan so‘zlar millatni ijtimoiy va siyosiy halokatdan qutqarishga bo‘lgan chorlov hisoblanadi. Qodiriy asarlarida millat tushunchasi faqat bir elatni emas, balki umumturkiston birdamligini anglatadi. U Vatan —bu xalqning taqdiri, uning kelajagi, urf-odatlari va ma’naviy boyligi ekanini ta’kidlaydi [2]. Otabekning otasi Yusufbek hoji bilan bo‘lgan bahslari orqali eski va yangi tafakkur to‘qnashuvi yoritiladi. Bu to‘qnashuv faqat oilaviy kelishmovchilik emas, balki butun bir millatning rivojlanish yo‘lida duch kelgan muammolarining ramziy ifodasidir. Otabek ilm-fan, yangilik va adolat tarafdori bo‘lsa, ayrim eski fikrli kishilar o‘tmishga qattiq yopishib, yangilanishdan qo‘rqadi. Muallif shu orqali Vatan taraqqiyoti uchun islohot va yangicha tafakkur zarurligini ilgari suradi.

Yusufbek hoji bu yerda vatan mustaqilligi va tinchligini asrab qolishga urinayotgan millat otasi obrazida. U xalqni ittifoqlikka, qon to‘kishni

to‘xtatishga chaqiradi. Biroq, zamon hukmdorlarining johilligi uning faryodlarini eshitmaydi. Uning ramziy ma'nodagi fojiasi — bu parokandalik botqog‘iga botgan vatanning chorasizligi tasviridir.Kumushbibi obrazi esa bu yerda shunchaki sevikli yor emas, balki Vatanning o‘zi kabi go‘zal, pok va ayni paytda zulm ostida qolgan mazlum qiyofasi sifatida talqin qilinadi. Kumushning fojiali o‘limi — Turkistonning go‘zalligi, uning sof qadriyatlari ichki nizolar va ko‘rolmaslik (johillik, hasad) qurboni bo‘lganining ramziy ifodasi hisoblanadi. Adib “O‘tkan kunlar” asarida millatning parokandaligini, ichki nizolarni vatanning mustamlaka kishanlariga band qilinishining bosh sababi deb biladi.

“Mehrobdan chayon” romanida esa Abdulla Qodiriy Qo'qon xonligi davrini tasvirlash orqali o'z zamonasidagi adolatsizlikni fosh qiladi. Anvar obrazi — iste'dod va mehnat kuchi bilan yuksalgan, ammo adolatsiz tuzum tomonidan ezilgan insonning timsoli. “Mehrobdan chayon” — din peshqadami bo'lib ko'ringan, ammo ichida zahar yashirgan munofiqlar ramzi. Roman nafaqat muhabbat haqida — u mustamlakachilik, adolatsizlik va erkinlik uchun kurash haqida[3]. Anvar — asarning bosh qahramoni bo‘lib, u o‘z davrining eng ilg‘or, odil va vatanparvar ziyolisi sifatida gavdalanadi. Anvar mirzaboshilik (saroy mansabi) darajasiga ko‘tarilganda ham o‘z kelib chiqishini unutmaydi. U mansabga boylik yoki kuch orttirish vositasi deb emas, balki xalqqa va vatanga to‘g‘ri xizmat qilish imkoniyati deb qaraydi.Ra’no esa adolatsiz tuzumga, xonning xohish-irodasiga bo‘ysunishdan bosh tortadi. U o‘z erki va sevgisi uchun kurashar ekan, bu kurash millat ayollarining huquqsizligiga qarshi isyon ramziga aylanadi. Endi mehrobdagi chayonlar (ya’ni Sultonali, Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti) Qo‘qon xonligining tanazzuliga tashqi kuchlar emas, balki ichkaridagi mana shunday "chayonlar" — xalqni eziyotgan dindor va amaldorlar sababchi bo‘lganini ko‘rsatadi.Xudoyorxon obraziga keladigan bo‘lsak, Mamlakat tepasida vatan va millat g‘amidan ko‘ra o‘z haramini to‘ldirishni o‘ylaydigan shaxs o‘tirgani uchun ham mamlakat parokanda bo‘ladi. U saroydagi fitnachilar (chayonlar)ning so‘ziga osongina uchadi va Anvar kabi vatanparvarlarni yo‘qotishga tayyor turadi. Abdulla Qodiriy ushbu obrazlar orqali shunday xulosaga keladi: Vatanning qudrati uning Anvar va Ra’no kabi ma’rifatli, sodiq va adolatli farzandlariga bog‘liq. Vatanning inqirozi va fojiasi esa saroydagi "chayonlar" va Xudoyorxon kabi irodasiz hukmdorlar tufaylidir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy asarlarida vatan va millat shunchaki geografik hudud yoki etnik tushuncha emas, balki jonli, og‘riqli va qadrli bo‘lgan muqaddas bir butunlikdir. Adib o‘z ijodi bilan millatga o‘zligini eslatdi, mustamlaka asoratidan qutulishning yagona yo‘li — milliy birlik, ma’rifat va vatanparvarlik ekanini ko‘rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://journalss.org/index.php/ust/article/download/5799/5510/11041
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBtkan_kunlar
3. https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/7825/7625
4. Qodiriy, A. (1992). O‘tkan kunlar (Roman). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Qodiriy, A. (1994). Mehrobdan chayon (Roman).
6. https://darsli.uz/preview/library/topic/abdulla-qodiriy-mehrobdan-chayon-dc31611f